

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚИШЛОҚ
ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ АГРАР УНИВЕРСИТЕТИ**



РЕФЕРАТ

Мавзу: Аналитик тафаккурнинг ривожлантириш усулида таълим бериш асослари

Текширди: _____
Бажарди: Турапов О

Тошкент-2016

Режа:

- 1. Интерфаол технологиялар моҳияти.*
- 2. Ўқиш ва ёзиш орқали таҳлилий тафаккурни ривожлантириш технологияси (ЎЁТТР).*
- 3. ЎЁТТР технологияси усуллари.*

Kirish

Interfaol texnologiya, o'qish va yozish orqali tahliliy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi, shaxsiy fikr, muloqot, faol ta'lim, shaxsiy tajriba, ijod, mantiqiy fikrlash, dalillash, refleksi, mustaqil fikrlash, mas'uliyat, tanlov, o'qish madaniyati.

Pedagogik amaliyotda ko'p yillardan beri «ta'limning faol usullari» atamasi qo'llanilib kelmoqda. Bu atama ta'lim oluvchilarning ob'ektli faolligining yuqori darajasini belgilaydi.

So'ngi yillarda esa ta'limga yana bir atama “**interfaol (interfaol) usullar**” tushunchasi kirib keldi. Ushbu atama pedagogik jarayonda ta'lim oluvchining ta'lim sub'ekti (o'qituvchi, trener, boshliq) bilan faol o'zaro ta'sirga asoslangan ta'limni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, interfaol o'qitish o'qitish bu sub'ekt va ob'ektlararo qaytuvchan aloqa yaxshi tashkillangan ta'limdir. Bu ikki tomonlama axborot almashinuvini nazarda tutadi.

V.V.Guzeev axborot almashinuvini uch turga ajratadi:

Ekstraaktiv rejim: axborot oqimi sub'ektdan ob'ektga yo'naltirilgan, lekin ob'ekt “ichiga” kirib bormasdan uni atrofida aylanadi. Talaba bunda passiv ishtirokchidir. Bu rejim ma'ruza, an'anaviy o'qitishga hos. bo'lib, ta'lim oluvchida faollikni shakllantirmaydi.

Intraaktiv rejim: axborot oqimi talaba yoki talabalar guruhiga yo'naltirilgan va ularning “ichida” sodir bo'lib, ularning aqliy faoliyatini faollashtiradi. Ushbu rejim mustaqil faoliyatga asoslangan ta'lim texnologiyalariga hos.

Interfaol rejim: bunda axborot oqimlari talaba ongiga singib kiradi va uni faol faoliyatga undab, qaytuvchan axborot oqimini vujudga keltiradi (talabadan o'qituvchiga). Shu tarzda axborot oqimi o'z yo'nalishini tartib bilan almashtirib turadi. Interfaol texnologiyalarning eng oddiy misollari sifatida suhbat va maslahat (konsultasiyani)ni keltirish mumkin.

Interfaol texnologiyalar maqsadlari:

- Ta'lim oluvchilarda kechayotgan aqliy jarayonlarni faollashtirish;
- talabada ichki dialog kechishi;
- axborotning tushunarli bo'lishini ta'minlash;
- pedagogik hamkorlikni individuallashtirish;
- talabani ta'lim sub'ekti pozitsiyasiga chiqarish;
- talablararo ikkitomonlama aloqalarning o'rnatilishiga erishish.

Interfaol texnologiyada o'qituvchining asosiy vazifasi bu axborot almashinuvi jarayonini yo'naltirish va unga ko'maklashishdir. Buning uchun o'qituvchi:

- bir faktga nisbatan mavjud bo'lgan turli munosabat, fikrlarni aniqlaydi;
- ishtirokchilarning shaxsiy tajribasiga tayanadi;
- ularning faolligini ta'minlaydi;
- nazariya va amaliyotni o'zaro bog'laydi;
- ishtirokchilarning tajribasi bilan o'zaro almashinuvini ta'minlaydi;
- ishtirokchilarning bir-birini tushunishini ta'minlaydi;
- ishtirokchilarda ijodkorlikni rag'batlantiradi.

Muhim qoidalar:

1. Axborot passiv rejimda emas, faol o'zlashtirilishi kerak. Bu esa muammoli vaziyatlar, interfaol sikllardan foydalanishni nazarda tutadi;
2. Interfaol muloqot aqliy rivojlanishni stimullaydi;
3. Qaytuvchan aloqa o'rnatilganida axborot yo'llovchi va qabul qiluvchi o'zaro rollar bilan almashadilar;

4. Qaytuvchan aloqa axborot almanishuvining samaradorligini oshirishga yordam beradi;
5. Bilimlar nazorati ularni amalda, real holatda qo'llash ko'nikmasini nazarda tutishi lozim.

**“O'qish va yozish orqali
tahliliy tafakkurni rivojlantirish” texnologiyasi.
(O'YOTTR texnologiyasi).**

O'YoTTR texnologiyasi XX asrda AQShda yaratilgan. Unda jamoali va guruhli o'qitish, hamkorlik va rivojlantiruvchi texnologiyalar g'oyalari mujassamlashtirilgan.

O'YoTTR texnologiyasi o'qish va yozish jarayonida axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yahlit tizimdir.

Tahliliy tafakkur – insonning aqliy faoliyatining bir turi bo'lib, idrok, tushunishning yuqori darajasini, atrofida majud bo'lgan axborot hududiga ob'ektiv yondashuvni anglatadi.

Tahliliy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan ta'limda talaba o'zlashtirish uchun axborot izlash bilangina chegaralanib qolmasdan o'zlashtirgan axborotni o'z tajribasi, shu yo'nalishda boshqa olib borilgan tadqiqotlar bilan solishtiradi. Bunda ular olingan ma'lumotlar yuzasidan shubha bildirishi, keltirilgan isbotlarning mantiqliligini tekshirib ko'rishi, hulosalar qilishi, ushbu ma'lumotning qo'llanilishiga misollar keltirishi, muammolarning echimlarini ko'rib chiqishga haqlidirlar.

O'YOTTR texnologiyasining asosiy maqsadlari:

- egiluvchanlik, ochiqlik (yangi ma'lumotlarni qabul qilishga tayyorlik), reflektivlik, fikr va munosabatlarlarning turlicha bo'lishi mumkinligini anglay olishlik, bir muammoning bir necha echimi bo'lishi mumkinligini anglashlik sifatlariga ega bo'lgan tafakkurni shakllantirish;

- shaxsning asosiy bo'lgan sifatлари: tahliliy tafakkur, refleksivlik, muloqotga kirishuvchanlik, mustaqillik, bag'rikenglik, o'z harakatlari uchun mas'uliyatni his etishni rivojlantirish.

- tahliliy tafakkurni rivojlantirish:

- talabalarni sabab-oqibat aolqalarini aniqlashga o'rgatish;

- yangi bilimlarni talabalarda shu kungacha shakllanib bo'lgan bilimlar kontekstida ko'rib chiqish;

- ahamiyatsiz yoki xato ma'lumotlarni rad etish;

- ma'lumot qismlarining nima asosida bog'lanishlarini anglash;

- fikr yuritishdagi xatolarni aniqlash;

- matn yoki so'zlovchi inson kimning qadriyatları, g'oyalari, manfaatlarını aks ettirishi haqida hulosa qila olishi va hokazo.

- o'z ichiga ma'lumot manbalarını topa olish, o'qishning turli strategiyalarını qo'llay olishni, ma'lumotlarni saralashni, yangi ma'lumotlarni tahliliy baholay olishni, hulosalash va umumlashtirishni olgan o'qish madaniyatini shakllantirish;

- mustaqil tadqiqiy va ijodiy faoliyatni rag'batlantirish.

Muhim qoidalar:

- Ta'lim maqsadi talabada ma'lum xajmdagi ma'lumotlarni shakllantirish emas, balki uni ushbu ma'lumotlarni boshqara olishga, ularni eng maqbul yo'llar bilan o'zlashtirishga, ma'nosini anglay olishga, hayotda qo'llay olishga o'rgatishdir.

- “Tayyor” bilimlarni o'zlashtirish emas, balki ta'lim jarayonida talabanning o'zi tomonidan bilimlarning yaratilishi;

- Ta'limning muloqotli-faoliyatli tamoyiliga amal qilish. Bunda mashg'ulot dialog, interfaollikka asoslanib, muammolar echimi hamkorlikda shakllantiriladi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabat esa “partnyorlik”ka asoslanadi;

- Tahliliy fikr yuritish bu kamchiliklarni izlash emas – bu o'rganilayotgan ob'ektning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashdir va hokazo.

O'YoTTR texnologiyasi uch bosqichdan tashkil topgan siklga asoslangan. Har bir bosqich o'z maqsad va vazifalari, tadqiqiy, ijodiy faoliyatni faollashtirish, olingan bilimlarni anglash va umumlashtirishga qaratilgan maxsus usullariga ega.

Birinchi bosqich **“chaqiruv”** bosqichi bo'lib, bunda talabalarda mavzuga oid oldindan mavjud bo'lgan bilimlar faollashtiriladi, mavzuga qiziqish o'yg'onadi, ta'lim maqsadlari aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich **“anglash”** deb nomlanib, bunda talaba matn ustida maqsadli ish olib boradi. Matnni o'qish davomida talaba ma'lum harakatlarni amalga oshiradi (belgilash, jadval tuzish va hokazo). Bu talabaga materialni tushunishini kuzatib borishga imkon beradi. “Matn” so'zi bu erda yozma matn ham, o'qituvchi so'zi ham, videomaterialni ham anglatadi.

Uchinchi bosqich **“refleksiya”** (o'ylash, fikrlash) bosqichi. Bu bosqichda talaba matnga nisbatan o'z munosabatini shakllantiradi va uni ifodalaydi (yozma yoki og'zaki (munozarada)). Shunda talaba ongida yangi olingan ma'lumotlar asosida o'z tasavvurlarini qayta ko'rib chiqish jaryoni kechadi.

Mashg'ulotlarning tashkiliy jihatlari. O'YoTTR texnologiyasi mashg'ulotlari an'anaviy ta'limdagi shakllardan farqlanadi. Bunda talabalar matnni mustaqil o'zlashtiradilar, o'zaro jonli muloqot olib boradilar. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda, juftliklarda, yakka tartibda tashkillanadi.

Matnga “bosh” rol ajratiladi: uni o'qiydilar, so'zlab beradilar, tahlil qiladilar, o'zgartiradilar, uning yuzasidan baxs-munozaralar olib boradilar, o'zlari yaratadilar.

“Zigzag” modeli qo'llanilganda talabalar to'rt guruhga bo'linadilar va har biri 1dan 4 gacha bo'lgan tartib raqamini oladi. Shundan so'ng ularga matn tarqatiladi. Mavzu nomi e'lon qilinadi, mashg'ulot yakunigacha har bir talaba berilgan matnni tushunib olshi shartligi aytiladi. Matn 4 qismdan iborat bo'ladi, har bir guruh tarkibida ham 4 tadan talaba. Demak har bir talaba matni ma'lum bir qismi ustida ish olib boradi, qolgan uchta qismini tushunib olishga unga guruhdoshlari yordam beradilar.

Mashg'ulot talabalar raqamiga qarab yangi kichik guruhlarni tashkillashlari bilan davom etadi. Har bir yangidan tashkillangan guruh matnning o'ziga tegishli qismini o'rganib chiqadi.


Talaba o'z matnini o'rganib chiqishi, uning yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini aniq, isbotli qilib shakllantirishi kerak. Bunda boshqa fikrlarni ham eshita olish, ular ham o'rinli bo'lishi mumkinligini tushunishdir.

O'qituvchi bunda asosan muvofiqlashtiruvchi rolini o'ynaydi.

Fikrlash jarayonini namoyish etishning eng keng qo'llaniladigan yo'li materialni grafiklar orqali ifodalashdir. Modellar, rasmlar, sxema va jadvallar g'oyalarning o'zaro aloqadorligini aks ettiradi, fikr yuritilishi bosqichlarini ko'rsatadi. Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan fikrlash jarayoni ko'rinish xususiyatiga ega bo'lib qoladi.

Materialni grafik ifoda etilishi ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin.

Munozaralar o'tkazish texnologiyasi.



Ta'lim jarayonida munozara ma'lum bir masala, muammoni muhokama qilish, ma'lumot, g'oya, fikr va takliflarni o'zaro qiyoslashdir. Munozarani turli maqsadlarda o'tkazish mumkin: o'qitish, trening o'tkazish, diagnostika, munosabatni o'zgartirish, ijodkorlikni rag'batlantirish va hokazo.

Munozara davomida talabalar bir-birlarining fikrlarini to'ldirishlari yoki qarama-qarshi fikrlarni bildirishlari mumkin. Ikkinchi holatda munozara baxs tusini oladi.

Munozara turlari:

Disput-munozara. Bunda munozarani olib boruvchi mavzuni e'lon qiladi va hoxlovchilarga (yoki oldindan tayyorgarlik ko'rganlarga) so'z beradi. Olib boruvchi disputni qisman boshqarib boradi, lekin disput baribir ko'proq kutilmagan tarzda, yo'nalishda kechadi.

Anjuman. Munozaraning bu ko'rinishida muhokama va baxsdan oldin muammoni o'rganilganlik darajasi yoki ma'lum tadqiqot ishining natijasi haqida axborot beriladi. Konferensiyaga tezislarni isbotliligi, xotirjam muzokara hosdir.

Matbuot, radio, televideniya olib boriladigan munozaralar ishtirokchilar o'rtasida bevosita bog'lanish yo'qligi bilan xarakterlanadi. Bunda ishtirokchilar o'z chiqishlarini shoshilmasdan, batafsil o'rganib chiqish imkoniyatiga ega.

Progressiv munozara. Uning maqsadi bir yo'la ham muammoni echish, ham ishtirokchilarda ma'lum kommunikativ ko'nikma va malakalarni rivojlantirishdir. Bunday munozara 5 bosqichdan iborat:

A) fikr yaratilishi (berilgan muammoni echish yo'llarini o'ylab chiqish uchun vaqt belgilanadi);

V) barcha takliflar doskaga yoziladi;

S) har bir taklif muhokama qilinadi;

D) eng ma'qul variantlar ko'rib chiqiladi va ahamiyatliligi nuqtai nazaridan terib chiqiladi;

Y) olib boruvchi munozarani tashkillaydi. Uning natijasida ko'proq ovoz olgan fikrlar qoladi va ularning ichidan bittasi tanlanadi.

Munozaraning bu turi talabalarda guruh qarorni tez va samarali qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Bellashuvli munozara. Ishtirokchilar komandalarga bo'linadilar. Jyuri tayinlanadi, taklif etiladigan fikrlarni baholash mezonlari ishlab chiqish: chuqur

o'ylanganligi, isbotliligi, mantiqliligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligi. Munozara mavzusi va ballar tizimi kelishiladi.

Munozara yakunida takliflarni umumiy muhokamasi bo'ladi, jyuri tomonidan baholanishi, va izohlanishi.

To'g'ri tashkillangan munozara 4 ta bosqichdan iborat bo'lib, bular: **yo'naltiruvchi, baholovchi, kelishuv va refleksiya**dir.

Yo'naltiruvchi bosqichda ishtirokchilarni muammoga va bir-birlariga ko'nikishi bo'lib o'tadi, ularda muammoni echishga bo'lgan yo'nalganlik shakllanadi.

Baholash bosqichi taqqoslash,, qarama-qarshilik, g'oyalararo nizoni nazarda tutadi. Bu ziddiyat noto'g'ri boshqaruv oqibatida shaxslararo nizoga ham aylanib ketishi mumkin.

Kelishuv bosqichi ma'lum yagona fikr, pozisiya, qarorlarga kelishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. *Pedagogik texnologiya. Pedagogik mahorat.* – T.: “O'qituvchi”, 2003
2. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari.* – Toshkent.: “Fan”, 2006
3. Farberman L. *Ilg'or pedagogik texnologiyalar* – T.: “O'qituvchi”, 2001
4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. *“Pedagogik texnologiya asoslari”* - T.: “O'qituvchi”, 2005
5. Selevko G.K. *Ensiklopedi yaobrazovatelnx texnologiy* – M.:”NII shkolnx texnologiy”, 2006
6. Bulanova-Toporkova M.V., Duxavneva A.V. *i dr. Pedagogichesie texnologii/uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix spetsialnostey.* – Rostov-na Donu, “Mart”, 2002